

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA DISTANT HOLATDAGI TAKRORNING O'ZGARISHLAR BILAN QO'LLANISHI

Dilfuza Shadiyeva

*ISFT instituti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari nomzodi*

Abstract

This article analyzes the differences between artistic and grammatical repetition, the study of artistic repetition in contact and remote forms, as well as distant repetition used in the poems of Muhammad Yusuf. The methodological basis of the study is made up of various categories of philosophy, such as form- content, cause- effect. The widespread use of methods of linguapoetic, methodological and comparative analysis and classification is envisaged.

Key words

repetition, repetition in the contact state, repetition in the remote state, chiasmus, word composition, inversion

Takror (badiiy takror) til badiiy tasvir vositalarining sintaktik figuralar turiga kiradi. Ma'lumki, badiiy takror grammatik takrordan jiddiy farq qiladi:

1. Badiiy takror ta'sir ma'nosini ifodalaydi, grammatik takror esa grammatik ma'no ifodalab, odatda, ko'plik ma'nosiga ega bo'ladi.

2. Badiiy takror turli xil ko'rinishlarda uchraydi (ohang bilan ajratiladi va o'rtada vergul qo'llanadi: toza, toza bo'lib ketdi; juda yaxshi, juda yaxshi, judayam yaxshi deyapman-ku; keldi, keldi, kelyapti... kabi). Grammatik takror bir ko'rinishga ega bo'lib, odatda doim chiziqcha bilan ajratiladi (yig'lab-yig'lab, yaxshi-yaxshi... kabi).

Badiiy takror badiiy matnlarda eng faol qo'llanuvchi tasviriy vositalardan hisoblanadi. Shunga ko'ra, hamma shoir va yozuvchilarning barcha turdagi badiiy asarlarida juda ko'p qo'llanadi.

She'ning joziba kuchi, badiyiligini oshirishda takror alohida o'rin tutadi. "O'rni bilan takrorlangan so'zlar ko'pincha badiiy ta'sirchanlikning, g'oyaviy baquvvatlikning ham muhim sharti bo'la oladi" [8. 268]. Shoir va yozuvchilar tasvirlayotgan voqea-hodisaning nazarda tutilgan tomoniga o'quvchining diqqatini tortish, uni bo'rttiribroq ko'rsatish uchun yoki ma'lum narsalarni sanab ko'rsatish niyatida "ko'proq she'riy asarlarda... ayrim tovush yoki tovushlar

birikmasiga, gaplarga ataylab alohida urg'u beradi, takrorlaydi" [9. 127]. Takror nazmda bir qancha san'atlarning vujudga kelishi uchun asos bo'ladi.

Takror, ta'kidlaganimizdek, turkiy she'riyatda eng qadimiy badiiy vositalardan biridir. Bizga ma'lum bo'lgan va eng qadimgi hisoblangan adiblardan biri Aprinchur Teginning she'rlarida, "Tong tangrisiga madhiya" (shartli nomlangan) she'rida so'z takrori yetakchi o'rin tutadi:

Tang tangri kalti,

Tang tangri o'zi kalti.

Tang tangri kalti,

Tang tangri o'zi kalti.

Turunlar, qamug' beklar, qadashlar,

Tang tangriga o'galim... ("Tong tangrisiga madhiya") [8. 41-42]

Quyida Muhammad Yusuf she'riyatida uchraydigan takrorlarni badiiyat hamda lisoniy nuqtayi nazardan uyg'unlashtirgan holda tadqiq etishga harakat qildik.

Tadqiq etish jarayonida takrorning ko'rinishlari va ifodalayotgan ma'nolari doirasi nihoyatda kengligiga ahamiyat berish lozim. Takror qo'llanish so'z tartibi, intonatsiya, takror orqali ifodalanayotgan ma'no hamda mantiqiy urg'u bilan bog'liq.

Demak, she'riyatdagi takrorga "muayyan g'oyaviy-badiiy niyatga xizmat qilish, ... timsollarni yorqin gavdalantirish, asarga joziba, jilo, ta'sirchanlik bag'ishlash" [5. 4-5] vazifasi yuklanadi.

Adabiyotshunoslik va tilshunoslik bo'yicha tuzilgan ayrim manbalarda alliteratsiya, epifora, rifma, anafora, assonans, konsonans, monorim, pleonazm, tavnologiya, naqarot kabilar badiiy takrorning turli xil ko'rinishlari tarzida talqin qilinadi [6. 178].

Muhammad Yusuf she'rlarida takror juda ko'p qo'llanadi. Ularni kontakt hamda distant holatdagi takror yo'nalishlarida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Distant holatdagi takroni ikki yo'nalishda tadqiq etish mumkin:

- a) takror jarayonida so'z tarkibining o'zgarishi;
- b) takrorlanayotgan birliklarning o'rin almashishi.

Takror jarayonida so'z tarkibining o'zgarishini ushbu parcha orqali tahlil qilishdan boshlaymiz:

Sen o'zing ayt, Onajon,

Sen o'zing aytgil, Vatan. ("Hayrat")

Takror qo'llanishlarni tahlil qilishdan avval bu parchada shartli sinonimiya (Onajon – Vatan) yuzaga keltirilganligiga ahamiyat berish lozim. Takrorning birinchi qismida keltirilgan "ayt" kesimining keyingi misrada "aytgil" tarzida qo'llanilishi iltimos, o'tinch ma'nosini

kuchaytirgan.

– **Shoirlar-chi**, bobo,

Shoirlar nima bo'ladi?

– **Shoirlarning shodlikdan**

Yuraklari yorilib o'ladi! ("Bir kuni")

Savol-javob asosiga qurilgan 4 misrada shoirlar so'zi uch marta takrorlanadi. Birinchi gapda shoirlar ega vazifasida kelib, dastlab yuklama bilan qo'llanadi va gap davomida ikki marta takrorlanadi. Bu holat "Sen-chi, sen borasanmi?" tipidagi gaplarga yaqin keladi. Takror orasiga undalma kiritilgan. Javob tarzidagi gapda takrorlanuvchi so'z eganing aniqlovchisiga aylanadi (shoirlarning yuraklari). Undan keyin shodlikdan so'zining qo'llanishi tovushdoshlikni yuzaga keltiradi.

Og'riydi, jonim og'rir,

Bu og'riqqa davo yo'q... ("Shirin azobim – sevgi")

"Og'rimoq" fe'lining ikki xil tarzda berilishi sababini og'riq jarayonining o'ta og'ir kechayotgani (bu ikkinchi misrada yaqqolroq ifodalangan), ikkinchi tomondan esa og'riqning davomli ekanligini anglatish uchun qo'llanganligi bilan izohlasa bo'ladi. Bunda "og'rir" so'zidan oldin "jonim" so'zini ega sifatida keltirish orqali ma'noga aniqlik kiritishga ham erishilgan.

Peshonam shu ekan, peshonang shudir,

Tushimga kir, jonim, tushlarimga kir... ("Tushlarimga kir")

Ko'rib turganimizdek, dastlabki misrada qo'shma gap qismlarida ega bo'lib kelgan "peshona" so'zi 1- va 2- shaxs egalik qo'shimchalari bilan takrorlangan bo'lsa, kesim vazifasida kelgan ko'rsatish olmoshi birinchi gapda bog'lama bo'lib kelgan "ekan" to'liqsiz fe'li bilan, ikkinchi gapda xuddi shu vazifadagi –dir qo'shimchasi bilan birga qo'llangan. Keyingi misrada "tush" so'zi takrorlanganda, keyingisida –lar qo'shimchasining qo'shilishi ma'noni bo'rttirgan hamda holat-jarayonning ko'proq davom etishini istash ohangini yanada kuchaytirgan.

So'zlar tartibining o'zgarishi (inversiya) she'riyatda tabiiy holdir. Takrorda so'z tartibini o'zgar tirish turli maqsadlarda qo'llanadi.

O'tmishga aylanmoqda,

Aylanmoqda o'tmishga... ("Shirin azobim – sevgi")

O'ylashimizcha, vaqtning har bir lahzasi tarixga aylanayotganligini ta'kidlash, bu jarayon har daqiqa, har soniyada yuz berayotganligiga alohida e'tibor qaratish va ta'kidni kuchaytirish, ohangni o'zgartirish niyatida yuqoridagi so'zlar teskari qilib takrorlangan.

Agar yuqoridagi parchada so'z tartibining almashinishi ma'no hamda so'z tarkibi jihatdan o'zgarish bo'lmaganini ko'rsatsa, keyingi parchada aks takrorlash she'r mazmunida burilish yasaydi:

Shunday bemorlar borki,

To'shakda mixlanib yotar benajot,

Uyalib ketasan tuzalgingdan.

Shunday shifokorlar borki,

Tug'ishgan akangday qaraydi senga,

Tuzalib ketasan uyalgandingdan... ("Osmonning oxiri")

Uchinchi misrada "uyalib ketasan" kesim, "tuzalgingdan" uyalishning sababini anglatayotgan bo'lsa, oltinchi misrada tuzalishning sababi uyalish qilib ko'rsatilmoqda. Buning uchun qo'shimchalar o'z o'rnida qolgan holatda "uyalmoq" va "tuzalmoq" fe'llari o'rin almashdi, xolos. Ushbu aks takror xiazmatik konstruksiyalar yordamida birikishning yorqin misoli hisoblanadi. She'rdagi originallik, ikkinchi gapda birinchi gapdagi komponentlarning teskari joylashuvidadir. Bunda yozuvchining asosiy maqsadi ikkinchi gapda berilgan. [4. 31]

Osmon cho'kib qoldi bu oqshom,

Yulduz bo'lib yog'ildi bir sas.

Bir mahalla nigohni ko'rdim:

Yashash kerak, sevisht shart emas. ("Osmon cho'kib qoldi...")

Demak, she'r hayotiy haqiqat, ko'pchilik ko'nikkan holatni (yashash kerak, sevisht shart emas) berish bilan boshlanadi. She'r davomida shoir ana shu oddiy hayot haqiqatiga o'z haqiqati, shiorini qarshi qo'yib, uni isbotlashga harakat qiladi:

Men olovga otarman endi,

Yuragimni qiyma-qiymalab...

Yoqa ushlab qolsin ko'rganlar,

Olovlarga otgum uni, bas.

Yonib ketsin chirsillab qalbim,

Sevisht kerak... yashash shart emas!

Takrorda so'zlarning o'rin almashinishi (tarde aks) natijasida lirik qahramonning hayotga munosabati anglashiladi. Ya'ni u ko'pchilik (bu sinekdoxa usuli bilan ko'chgan bir mahalla nigoh birikmasi orqali anglashiladi) uchun odatiy tuyulgan holga ko'nika olmaydi, bu muhitga sig'maydi, natijada butunlay teskari xulosaga keladi: Sevisht kerak... yashash shart emas! Bu bilan biz uchun badiiy takrorning yana bir muhim ma'no qirrasini ochiladi. Bu o'rinda xiazmatik konstruksiya uslubiy-semantik jihatdan mazmunan o'zaro ziddlik kasb etishi bilan birga, bir-birini mantiqan to'ldiradi. Shuningdek, ekspressiv jihatdan o'quvchiga zavq bag'ishlab, fikrni tez va uzoq vaqt esda saqlab qolishiga xizmat qiladi. [4. 31]

Boshga loyiq do'ppi yo'qdir, yo

Bosh qolmadi do'ppiga loyiq. ("Do'ppi")

Ikki misrada "loyiq" so'zi shaklini saqlagan holda, "bosh, do'ppi" so'zlari esa grammatik o'zgarishga uchragan holatda berilgan. Ya'ni jo'nalish kelishigi qo'shimchasi –ga dastlab "bosh" so'ziga qo'shilganligi uchun mantiqiy urg'u "do'ppi" so'ziga tushsa, keyingi misrada bu qo'shimcha "do'ppi" so'ziga qo'shilishi natijasida "bosh" so'zi mantiqiy urg'u oladi va ta'kidlab ko'rsatish maqsadida misra boshiga chiqariladi. Misralardagi so'z tartibi deyarli o'zgarishsiz saqlansa-da, kelishik qo'shimchasining bir so'zdan ikkinchiga o'tkazilishi natijasida ma'noda keskin o'zgarish yuzaga keladi.

Umuman olganda, takror ham asar g'oyasini ochib berishda o'ziga xos o'ringa ega. "Har bir takroriy qo'llangan so'z o'zining yakka holda, ya'ni takrorlanmasdan qo'llanishiga nisbatan yangi ma'no ottenkalariga ega bo'ladi va shu asosda uning semantik doirasi ham ancha kengayadi, emotsionallik xususiyati ortadi. Bu esa takrorlash usulining naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi" [2. 104]. So'zlarni turli o'rinlarda takrorlash ma'lum bir maqsadga, chunonchi:

a) ohangdoshlikni, tovushdoshlikni, o'ynoqilikni ta'minlash;

b) zid tushunchalarni uyg'unlashtirish;

d) ta'kidlash va uni kuchaytirish;

e) mazmun va shakl uyg'unligini ta'minlash;

f) o'quvchining fikrlash qobiliyatini o'stirish yoki kengaytirish;

g) mantiqiy izchillikni ta'minlash" [3. 133] bilan birga, o'zbek tilining ichki imkoniyatlarini yanada yorqinroq ko'rsatish hamda she'rning estetik quvvatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002.
2. Ahmedov A. Furqat poeziyasining leksikasi: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 1960.
3. Keldiyorova G. O'zbek badiiy nutqida antiteza: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 2000.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
5. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998.
6. Тимофеев Л. Основы теории литературы. –М., 1963.
7. Тимофеев Л., Венгров Н. Краткий словарь литературоведческих терминов. –М., 1958.
8. To'xliyev B. O'zbek adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2000.
9. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977.
10. Кожин В.В. Как пишут стихи. –М.: Просвещение, 1970.